

# ISTE'MOL KAYFIYATI SHARHI


## 2025-YIL IV CHORAK

### Qisqa tavsif


2025-yilning IV choragida aholining iste'mol kayfiyatida ijobiy tendensiyalar davom etib, umumiy barqarorlik ta'minlandi. Bu daromadlar bo'yicha kutilmalarning yuqori darajada shakllanishi, xarajatlar rejaları barqarorligi, jamg'arishga bo'lgan moyillikning ijobiy dinamikasi hamda kreditga bo'lgan talabning biroz oshishi bilan namoyon bo'ldi.

Daromadlar oshishi kutilmalari yuqori darajada shakllandi. Respondentlarning 67 foizi keyingi 12 oyda daromadlari oshishini bildirdi (o'tgan chorak darajasida). Daromadlar o'sishi bo'yicha kutilmalar barcha daromad guruhlari kesimida yuqori darajada shakllangan bo'lib, ayrim guruhlarda, xususan, 7–10 mln so'm daromadlilar orasida biroz kuchaydi. Shu bilan birga, 20 mln so'mdan yuqori daromadga ega respondentlar orasida ushbu kutilmalar nisbatan pasaydi.

1-rasm. Daromad subindeksi (band)



2-rasm. Daromad subindeksi o'zgarishi (o'tgan chorakka nisbatan, foiz band)



Manba: Markaziy bank kuzatuvlari asosida.

Bunda qatnashuvchilarning 67 foizi asosiy daromad manbai sifatida rasmiy oylik ish haqini ko'rsatdi. Shuningdek, savdo, axborot texnologiyalari va OAV, maishiy xizmatlar hamda turizm yo'nalishlarida faoliyat yurituvchilar orasida daromadlar oshishini kutayotganlar ulushi yuqori bo'ldi.

Xarajatlar bo'yicha kayfiyat yuqori darajada shakllanib, o'tgan chorak darajasiga yaqin bo'ldi. Respondentlarning 76 foizi kelgusi oylarda xarajatlari oshishini bildirdi (o'tgan chorakka nisbatan biroz pasaygan). Daromad guruhlari kesimida ta'lim, uy-joyi ta'mirlash va saqlash, sog'liqni saqlash hamda avtomobil va boshqa yirik xaridlar asosiy xarajat yo'nalishlari sifatida shakllandi.

### 3-rasm. Xarajatlar bo'yicha kutilmalar, aholi daromadlari kesimida (ulushi, foizda)

Kelgusi xarajatlari	uy-joy ta'miri	ta'lim	avtomobil	boshqalar	davolanish	xarid qilmaymiz	sayohat	uy-joy xaridi	to'y	mebellar xaridi	maishiy texnika	oilaviy bayram	elektron qurilma
2 mln. so'm gacha	23	21	7	13	12	15	4	5	8	5	3	3	2
2-3 mln. so'm	27	23	5	10	13	13	5	6	6	8	6	7	3
3-5 mln. so'm	26	22	9	11	13	13	7	8	8	5	6	6	3
3-5 mln. so'm	23	19	12	14	12	14	6	6	10	4	5	5	1
7-10 mln. so'm	25	22	18	15	11	10	9	8	8	6	7	6	3
10-15 mln. so'm	30	22	15	18	13	10	12	12	8	7	9	6	4
15-20 mln. so'm	32	20	19	19	11	8	14	14	12	13	8	6	6
20-30 mln. so'm	19	17	24	13	13	9	19	14	10	12	9	10	5
30 mln so'm dan yuqori	23	18	27	20	17	8	20	20	12	10	12	10	5

Manba: Markaziy bank kuzatuvlari asosida.

Xarajatlar ustuvorligi yosh guruhlari bo'yicha farqlanib, yoshlar asosan ta'lim va uy-joy ta'miriga, o'rta yoshdagilar uy-joy ta'miri, farzandlar ta'limi, davolanish hamda oilaviy tadbirlarga, yoshi katta respondentlar esa sog'liqni tiklash va to'y marosimlari bilan bog'liq xarajatlarga ko'proq e'tibor qaratdi.


### 4-rasm. Yosh kesimida xarajatlar tarkibi (ulushi, foizda)

Yosh chegarasi	ta'lim	uy-joy ta'miri	davolanish	boshqalar	oilaviy bayram	xarid qilmadik	maishiy texnika	avtomobil	to'y	sayohat	mebellar xaridi	uy-joy xaridi	elektron qurilma
18 yoshdan kichik	36	12	7	14	9	7	7	8	7	8	3	4	3
18-30 yoshgacha	30	22	17	15	14	11	9	9	9	4	4	5	5
31-40 yoshgacha	21	24	19	16	14	14	8	7	4	4	5	5	4
41-50 yoshgacha	27	29	21	14	13	12	7	6	8	2	4	3	2
51-60 yoshgacha	16	26	24	11	14	11	9	9	13	8	4	4	2
60 yoshdan katta	11	21	34	15	8	11	10	8	4	8	4	4	1

Manba: Markaziy bank kuzatuvlari asosida.

Kredit va qarz olish bilan bog'liq xatti-harakatlarda jonlanish kuzatildi. Respondentlarning muayyan qismi kelgusi oylarda kredit olish ehtiyoji mavjudligini bildirgan. Kredit mablag'lari asosan uy-joy ta'miri, ta'lim, davolanish hamda avtomobil xaridlariga yo'naltirilishi kutilmoqda.

5-rasm. Jamg'armaning yetarlilik darajasi bo'yicha kutilmalari (ulushi, foizda)



Manba: Markaziy bank kuzatuvlari asosida.

Jamg'arishga bo'lgan moyillik ijobiy trendni davom ettirdi. Shu bilan birga, jamg'armalar hajmida choraklik kesimda biroz pasayish qayd etildi. Jamg'armalari oshishini kutayotgan respondentlar ulushi yuqori darajada shakllangan bo'lib, bu aholining moliyaviy barqarorlikka ehtiyotkor yondashuvi davom etayotganini ko'rsatadi.

Respondentlarning moliyaviy holat bo'yicha baholarda ijobiy o'zgarishlar qayd etildi. Moliyaviy holati yaxshilanganini bildirgan respondentlar ulushi yuqori bo'lib, salbiy baholovchilar ulushi nisbatan past darajada qolmoqda. Makroiqtisodiy kutilmalar ham ijobiy shakllanib, respondentlarning katta qismi kelgusi 12 oyda iqtisodiy rivojlanish yaxshilanishini kutmoqda.

To'liq sharh bilan quyidagi [havola](#) orqali tanishishingiz mumkin